

**“QOMUS UL-A’LOM”DA MARKAZIY OSIYO AHOLISINING XIX ASRDAGI
ETNIK TARKIBI, IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTI
ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ, СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ
НАСЕЛЕНИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ В XIX ВЕКЕ В «КАМУС УЛ-АЛАМ»
ETHNIC COMPOSITION, SOCIAL-CULTURAL LIFE OF THE POPULATION
OF CENTRAL ASIA IN THE 19TH CENTURY IN “QAMUS UL-ALAM”**

Mansurov Isroiljon G‘ofur o‘g‘li

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika

kafedrası o‘qituvchisi

isroilmansurov12@gmail.com

Tel: +998940661661

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asrdagi ijtimoiy hamda madaniy hayot qanday bo‘lganligi haqida “Qomus ul-a’lom” ensiklopediyasi asosida taqdim etilgan. Maqolada ma’lumotlar viloyatlar kesimida berilib, viloyatlarning ma’lumotlari ensiklopediyaning boshqa qismlarida kelishiga qaramay umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Jayhun, Namangan, Xo‘jand, Kosonsoy, Samarqand, oriy.

Аннотация: в данной статье представлена общественная и культурная жизнь XIX века на основе энциклопедии «Камус уль-Алам». В статье информация дана в разделе регионов, причем информация о регионах обобщена, несмотря на то, что она фигурирует в других частях энциклопедии.

Ключевые слова: Бухара, Джейхун, Наманган, Ходженд, Косонсой, Самарканд, Оры.

Abstract: this article presents the social and cultural life of the 19th century based on the encyclopedia “Qamus ul-Alam”. In the article, the information is given in the section of the regions, and the information of the regions is summarized despite the fact that it appears in other parts of the encyclopedia.

Keywords: Bukhara, Jayhun, Namangan, Khojand, Kosonsoy, Samarkand, Ory

Markaziy Osiyo aholisining XIX asrdagi etnik tarkibi, ijtimoiy-madaniy hayoti haqida ham ensiklopediyada atroflicha ma’lumot berilgan.

Buxoro amirligi aholisining asosiy mashg‘uloti ziroatchilik bo‘lib, yashash sababi bo‘lsa-da ziroat va chorvachilik mahsulotlari savdoga xosdir. Juda ko‘p bozor va do‘konlari bordir. Hunarmandchilik mos ravishda, asosan, bo‘z, olacha, ipak matolari, gilam, joynamoz, mato kabi to‘qimachilik mahsulotlari, gazlama va temir bilan bog‘liq ba’zi asboblari va qurol mahsulotlardan iboratdir³. Savdosi juda gavjum bo‘lib, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan iborat bo‘lgan ichki savdodan tashqari, Rossiya va Sharqiy Osiyo

³ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mîhran, 1889. II C. – B. 1249

o‘rtasidagi savdo markazi hamdir. Rossiya davlati tomonidan Kaspiy bo‘yidan Samarqandgacha cho‘zilgan, Buxoro xonligining bir chekkasidan ikkinchi tomoniga cho‘zilgan temir yo‘l u yerdagi savdo-sotiqni ancha kengaytirib, Buxoroni sivilizatsiya olamiga ham yaqinlashtirdi. Eski ta‘lim va madaniyatdan juda oz izlar qolgan, ko‘pchilik madrasalar vayron bo‘lgan, hatto mavjud bo‘lganlarida ham oz miqdorda fiqh, aqid va adabiyot o‘qilgan. O‘rta asrlardan beri o‘rnashib olgan ortga qaytish tamomila o‘z hukmini o‘tkazdi.

Ensiklopediyada shuningdek Buxoro amirligining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri hisoblangan Abdulkarim Buxoriy (Mir) haqida ham ma‘lumotlar uchraydi. Buxoroda tavallud topgan olim Istanbulga safar etib, hijriy 1246-yilda Istanbulda vafot etgan. Turkiston va Afg‘oniston holiga doir bir tarixiy asar yozgan va u Shefer tarafidan fransuzcha tarjimada 1876-yilda nashr etildi⁴.

Buxoro amirligining aholisi bir millatga mansub bo‘lmay, bu mamlakatda oriy va turkiy qavmlar birgalikda istiqomat qilib kelishgan. Shahar va shaharchalar, qishloqlarda o‘troq bo‘lib, hunarmandchilik va savdo, ziroatchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan oriy(tojik) qabila aholisidan anglatilgan qavm bo‘lib, fors tilida so‘zlashsalar, sunniy mazhabda bo‘lib, eroniy bo‘lishni qabul etmaydilar. Ularning yuzlari silliq va juda chiroylidir, hatto ayollari ham go‘zalligi bilan mashhurdir. Ular mehnatkash va har bir ishda mahoratlidirlar. Oz miqdorda shia eroniylari ham bo‘lib, qadimda Marvdan asir tutilib Buxoroga ko‘chirilgandir. Turoniy millatiga mansub bo‘lgan aholiga e‘tibor berilsa, ko‘pchiligi qabila holida yashab, ancha yildan beri hukumatda rahbar bo‘lgan va qavm idora etadigan sifatida bo‘lgan o‘zbeklar o‘troqlaridir. O‘zbeklarning yuzlari mo‘g‘ul millatinikiga o‘xshash bo‘lsa-da, biroz terilari silliqdir. Turkman o‘troqlari juda ko‘p bo‘lib, ularning eng jasur va obro‘lilari Taka turkmanlaridir, ularning yuzlari silliq bo‘lib, o‘ziga xos kuchli axloq va sifatlarga ega bo‘lganlar. Ular asosan janub tomonda va Jayhun (Amudaryo) sohillarida yashashgan. Shimoli-sharqiy taraflardagi sahrolarda esa qirg‘iz, qalmoq va qoraqalpoqlar o‘troqlari aylanib yurishadi. Ular Chingiz O‘rdasi tashkil etgan mo‘g‘ullarning avlodlaridandir. Shahar va shaharchalarda, ba‘zi qishloqlarda avvalgi davrda Islom olib kirib, o‘troqlashgan din kurashchilardan bo‘lgan biroz arablar ham bordir. Yahudiylar oz miqdorda bo‘lib, Buxoroda va boshqa ba‘zi shaharchalarda yashaydilar. Kabili ismi bilan ma‘lum bo‘lgan biroz lo‘lilar ham bo‘lib, cherkezlar bilan kezib yuradilar. Tili rasmiy forsiy bo‘lib, o‘zbeklar va o‘troq aholi turkcha, ya‘ni chig‘atoycha gaplashadilar. Umumiy aholi sunniy mazhabidadir.

Sayohatchi Meyendorfning 1820-yildagi taxmilariga ko‘ra, Buxoro xonligi aholisining boshqa millat soni kam bo‘lgan. O‘shandan beri xonlikning ko‘p qismlari Rossiya tomonidan bosib olinib, aholi soni ko‘paygan bo‘lsa ham, bu jadvaldan turli odamlarning nisbatlarini tushunish mumkin.

⁴ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mîhran, 1894. IV C. – B. 3089

O‘zbek	1.500.000
Tojik	600.000
Turkman	200.000
Arab	50.000
Eroniy	40.000
Qalmoq	20.000
Qirg‘iz va qoraqalpoq	6.000
Yahudiy	4.000
Afg‘on	4.000
Lezgi	2.000
Lo‘li	2.000
Umumiy	2.478.000

XIX asr o‘rtalarida amirlik aholisi 2.500.000 atrofida bo‘lgan⁵.

Amirlik markazi Buxoro shahri chorsularining ichki ustunlari va o‘rtalari kengdir. Ko‘plab karvansaroylar, 360 ta masjid, 113 ta madrasasi va bir nechta go‘zal va mohirona ishlangan inshootlari bordir. Jome‘larning ikkita kattasi va ikkita mohirona qilingan masjidi jome‘dirki, juda eski bo‘lib, zilziladan xarob bo‘lgan ikkovining qubbasi Temur tomonidan yangilangan. Binolar qismlarining ikki inshooti (Abdulloh madrasasi) diniy madrasadir. Xonning qarorgohidagi saroy mohirona qurilgan va juda qadimiydir. U yerda chiroyli chashmalari ham bordir. Buxoroda paxtadan turli gazlamalar, ipakdan qog‘oz va turli qurollar tayyorlanadi. Ularning ko‘plab korxonalari bor edi. Bir tomondan Hindiston, Xitoy, Eron va Afg‘oniston bilan, ikkinchi tomondan esa Rossiya bilan katta savdo markazidir. Uning aholisi soni bo‘yicha ixtiloflar mavjud, ba‘zilari buni 150 000, boshqalari esa atigi 80 000 deb hisoblashadi. Ehtimol, 100 mingga yaqin aholisi bordir. Shularning uchdan biri tojik atalib, fors tilida gaplashadilar, kamchiligi o‘zbek va boshqa turk xalqlari, ko‘p sonli yahudiylardan tarkib topgan.

XIX asrda Hisor shahrining 15.000 ming aholisi bo‘lgan. Shahrisabzning 35.000 aholisi, 150 ta jome‘si, Amir Temurning aylana bino bo‘lgan Oqsaroy nomli bir saroyining xarobasi va juda katta savdo aylanmasi bo‘lgan. Qobadiyon tumanining aholisi asosan tojiklar va o‘zbeklar bo‘lib ular ipakchilik bilan shug‘illanishgan⁶.

Xiva xonligi aholisining tarkibi, ijtimoiy-madaniy hayoti haqida ham yetarli ma‘lumotlar berilgan. Xonlikning aholisi 700.000 dan ortiq bo‘lib, bulardan 300.000 kishi shaharcha va qishloqlarda istiqomat qilishadi, qolgan 400.000 kishi cho‘llar va qirlarda ko‘chib yuradi. Umumiy aholining millati ikki qismga bo‘linib, biri turkiy boshqasi tojik nomli eroniy millatidir. Tojiklar Xorazmning eski aholisidan bo‘lib, o‘zlari hunarmandchilik, ziroat va madaniyatga ham qobilyatli bo‘lib, yuzlari ham silliqdir. Bular fors tilida suhbatlashadilar. Bu aholi qismi ancha yillardan beri qavm rahbari bo‘lgan o‘zbeklarning hukmi ostida bo‘lsalar-da, sekin asta hukumat ishlariga yaqinlashmoqdalar.

⁵ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1889. II C. – B. 1250.

⁶ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1891. III C. – B. 1961.

Tijorat va mamlakat iqtisodiy ishlariga ham odamlarini ko‘chirish orqali yetarlicha nufuz va kuch ko‘paytirmoqdalar. Turkiy millatiga mansub bo‘lgan aholi ham to‘rt qavmga bo‘linib, umumiyning eng ko‘pchiligi o‘zbek qavmidir, ular eski uyg‘urlardan yuzaga kelgan taxmin qilinadi. Ikkinchisi turkman, uchinchisi qoraqalpoq, to‘rtinchisi qirg‘iz qavmlaridir. O‘zbeklar bilan qoraqalpoqlarning ko‘pchiligi va turkmanlarning bir guruhi qishda qishloq va shaharlarda yashab, faqat yozda hayvonlari bilan yaylovlarda chodir qurarlar. Bir guruhlari doimiy ko‘chmanchi holatda bo‘lib, Xiva xonligidan Buxoro xonligi va Rossiyaga qarashli sahrolarda aylanib yuradilar. Bulardan turkmanlar Xurosan va Eronga qadar cho‘zilib qaroqchilik qiladilar. Xiva xonligining butun aholisi boshqa Markaziy Osiyo aholisi kabi to‘liq islom va sunniy mazhabida bo‘lib, hanafiy mazhabiga ergashadilar.

Xonlikning bosh shahri Xivada 30 tacha jome’ shariflari, ko‘p sonli madrasalari, chorus va bozori, g‘arb tarafida ko‘p bog‘ va bog‘chalari bilan daraxtlari va kanallari bordir. Binolarning eng go‘zali xon saroyi bilan aholining e‘tiqod tamomila yuzi bo‘lgan shayx Pahlavonning maqbarasidir. Aholisi 150.000 dan ortiq bo‘lib, aksar qismi o‘zbek millatiga mansubdir. Tojik, aniqroq aytiladigan bo‘lsa eroniylar ham ko‘pdir. Mahsulotlardan asosan, gilam, joynamoz, ipak va paxtadan ba’zi gazlamalardan iboratdir⁷.

Asosiy shaharlaridan yan biri Urganchda 5000 hovli bor. Buxoro va Rossiya orasida bo‘ladigan savdoda xazina hukmida bo‘lib, savdoda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Shaharda 20 ta masjid bor⁸.

Rossiya imperiyasi ta’sirida bo‘lgan hududlarda ham faol ijtimoiy hamda madaniy hayot hukm surgan. Xossatan, Semipalatinsk viloyatining umumiy aholisi 574132 ta bo‘lib asosan dehqonchilik hamda chorvachilik faoliyat yuritishgan.

Semipalatinsk shahrining aholisi 17815 ta bo‘lgan. Aholisining uylari yog‘ochli bo‘lib, toshdan juda oz foydalanishgan. Shaharchaning ko‘p qismi tatarlarga maskan bo‘lib, biri toshli 10 ta jome’si va o‘rtada bir chorsusi bor. Rus mahallarida ikkita cherkov va bir maktab bor. Qirg‘izlarning mahallasi Belog‘och deb nomlangan va shimoliy tarafda bo‘lgan chekka mahalla bo‘lib, ziroatchilik bilan shug‘ullanadilar⁹.

Semirechensk viloyatining aholisi 666.339 kishi bo‘lib, aholisining yarmidan ko‘pi qirg‘iz va ko‘chmanchi bo‘lib, o‘troq bo‘lgan yarmi o‘zbek, tatar, tojik, qalmoq va boshqalardan tarkib topgan. 2 % qozoqlardan boshqa hamma musulmon hamda sunniylikka e‘tiqod qiladi.

To‘rg‘ay viloyatining aholisi 333.190 kishi bo‘lib, ko‘pchiligi Islomga e‘tiqod qiladilar. Aholining katta qismi qirg‘iz qavmiga mansub bo‘lib, ko‘chmanchi holda yashaydilar¹⁰.

Sirdaryo viloyatining 1.143.000 aholisi bor. Aholisining yarmi va qabila holatida yashaydiganlari qirg‘iz bo‘lib, bularga barobar bir necha ming turkman va qoraqalpoq ham bor. O‘troq aholisining ko‘pchilik qismi sart qavmiga mansub bo‘lib, bular asosan ziroat bilan mashg‘uldirlar. Boshqa o‘troq aholisi tojik, o‘zbek, rus va biroz eroniy, afg‘oniy va

⁷ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1891. III C. – B. 2076.

⁸ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 1075.

⁹ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2631.

¹⁰ Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2686.

boshqa ajnabiylar bilan yahudiy, lo‘li va boshqalardan iborat. Faqat mahalliy tojiklar forsiy til bilan, qirg‘izlar, sartlar, o‘zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar chig‘atoy turkiychasi bilan muloqot qiladilar. Ruslar 35.000 kishidan iborat bo‘lib, aksar qismi askar va boshqaruvchidan iboratdir. Bular bilan oz miqdorda bo‘lgan yahudiylardan boshqa hamma aholi musulmon va hanafiy mazhabiga ergashgan sunniylardir. Musulmonlarning madrasalari va jome‘lariga qarashli maktablari bo‘lib, Rossiya davlati ham ruscha va turkiycha dars beradigan maxsus ba’zi aralash maktablar ochgan. Butun viloyatda bitta erkaklar, bitta bir ayollar maxsus ikkita ichki maktabi edodiya (litsey) bilan bitta dorulmuallimin (o‘qituvchilar tayyorlaydigan dargoh), 6 ta erkaklar, 4 ta ayollar boshlang‘ich maktablari 3 ta aralash maktab va 2 ta yetimxona mavjuddir¹¹.

Mahalliy sanoat juda sust bo‘lib, Toshkentda eski usul asosida ba’zi gazlamalar va jun matolari to‘qilib, bir nechta teri oshlash, mum va sovun korxonalari bor. Ruslar ham ba’zi mast qiluvchi ichimliklar fabrikalari ochganlar. Tijorat asosan sartlar va yahudiylar qo‘lida. Yillik importi 28.500.000 frankka va eksporti 10.800.000 frankka teng keladi.

Sirdaryo viloyati markazi Toshkent shahrining 100.000 aholisi bor. Uylari past va bog‘chalar bilan o‘ralgan. Eski shaharning Shayhantohur dahasi 80 ta masjid va 3 ta madrasaga ega. Bu yer aholi ziroat, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan mashg‘uldir. Sebzor dahasining 10 ta jome‘si va 3 ta madrasasi bor. Bulardan Nurmuhammad va Baroqxon deb nomlanganlari ikkitasi juda qadimiy bo‘lib, ichida 300 dan ziyod talaba tahsil oladi. Bu qismning aholisi hunarmandchilik, alalxusus poyabzalchilik bilan mashg‘ul. Ular orasida hatto ko‘p hayvonlarga ega bo‘lgan odamlar ham bor. Shaharning Ko‘kcha qismida 5 ta masjid, 2 ta madrasa va 8 ta maqbara bor. Beshyog‘ochda bir nechta masjidlar bilan ikkita mashhur madrasa va Xo‘ja Ahror nomi bilan bir xonaqo bor. Bu tarafning aholisi bog‘dorchilik, ziroat, g‘isht va kafel ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Butun shaharda 300 ta masjid, 17 ta madrasa, 60 ta maktab, 30 ta karvansaroy, 6 ta hammom, 1600 ta do‘kon, 322 ta maydon va 130.000 dan ziyod uy mavjud. Ruscha va tatarcha dars beradigan maxsus aralash bir maktabi ham bor¹².

Ruslar umumiy aholining oltidan biri nisbatidadir. Rus mahallasida hukumat idoralari bilan ikkita cherkov, 4 ta monastir, bitta masjid, bitta teatr, bitta kasalxona, erkak va ayollar uchun 2 ta litsey, bitta o‘qituvchilar tayyorlaydigan markaz, bitta o‘simlik va daraxtlar yetishtirish maktabi bilan o‘simliklar bog‘i, bir nechta boshlang‘ich maktabi, 2 ta yetimxona mavjud. Shahardan ikki kilometrlik masofada ham rasadxona va tibbiyot bilimlari namunalari bor. Mukammal bir kutubxona ham bo‘lib, Turkiston va O‘rta Osiyoga oid yuzlarcha jild kitobi va eski namunalari bilan tabiatini aks ettirgan muzeyi bor. Tijorati juda unumli bo‘lib, ikkita banki ham bordir. Bitta turkiycha va ikkita ruscha bo‘lgan uchta nashr etiladi.

E’tiborli tarafi viloyatning mashhur qal’asi hisoblangan Petro Aleksandrovskning atigi 50 ta aholisi bor.

¹¹ Şemseddin Sami. Kâmu’su’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2751.

¹² Şemseddin Sami. Kâmu’su’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2753.

Xo‘jand shahrining 29.000 aholisi bordir. Aholisining katta qismi tojik, kam qismi o‘zbek va qoraqirg‘izdir. Aholisi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Aksar aholisining ko‘chishlari bilan holi qolgan mahallarga so‘nggi vaqtlarda ruslar o‘rnasha boshladilar. Jome'larning eng kattasi Hazrati Robiya jome' sharifidir. Mashhur ulamolar va yozuvchilardan ko‘p zotlarning vatani hisoblanadi¹³.

Farg‘ona viloyatining 800.000 aholisi bor. Aholisi o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq va lo‘lilardan tarkib topgan bo‘lib, rus, afg‘on, hind, qoshg‘ariy kabi ba‘zi boshqa millat vakillari ham bor. Ko‘pchilik sartlar bo‘lib, o‘zbeklar bilan tojiklarning aralashuvi va nikohlaridan dunyoga kelganlardir. Hatto, ko‘chmanchilikdan o‘troqlashgan o‘zbek va qoraqirg‘izlarga ham bu nom beriladi. Tojiklar bilan nikohlanishdan mo‘g‘ul siymoli shaklini ham olgan. Tojiklar asl eroniyliklar bo‘lib, bir guruhlar mamlakatning qadimiy aholisidandir. Bularning ichida moviy ko‘zli, sariq sochli bo‘lib, asosan kashtan ranglilardir¹⁴.

Tojiklarning bir qismi o‘zbeklar Erondan olib keltirilgan asirlarining avlodlari, bir qismi esa turli davrlarda mamlakatga kelib o‘rnashib qolgan eronlik muhojirlarning avlodlaridir. O‘zbeklarning bir qismi hozirgi vaqtda ko‘chmanchi bo‘lib, bir qismi o‘rnashib, dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlagan bo‘lsa-da, eski odatlarini unutmagan, bog‘u dalalarida tikkan chodirlarida kun kechirmoqda. Qirg‘iz xalqi tog‘larda yolg‘izlikda yashab, cho‘ponlik va chorvachilik bilan mashg‘uldirlar. Ular faqat qishda pastroq joylarga tushishga majbur bo‘lishadi. Bular juda jasur va mohir otliqlardir. Qoraqalpoqlar tinch va osoyishta bo‘lib, Sirdaryo vodiysida istiqomat qilishadi¹⁵.

Farg‘onaning asosiy shahar va shaharlari hamda uy-joylar, do‘konlar, masjidlar, madrasalar va maktablar soni quyidagicha:

Shahar	Xonadonlar	Do‘konlar	Jome' va masjidlar	Madrasa va maktablar
Qo‘qon	10.000	2.000	300	140
Marg‘ilon	6.000	1.000	300	90
Andijon	4.000	1.000	200	66
Namangan	4.000	1.000	200	100
O‘zgand	1.000	100	10	24
Baliqchi	1.000	100	50	13

Marg‘ilonda 26 ming aholi istiqomat qilgan. Aholis savdo-sotiq hamda dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Ko‘pgina ulamolar va boshqa olimlarning kelib chiqishi shu yerdan bo‘lgan¹⁶.

Katta shaharlaridan biri Qo‘qonning 35.000 aholisi bor. Katta bozori, go‘zal jome'larning binolari, go‘zal ko‘prigi, qimmatli toshlari, kiyimlar va gazlamalar va ko‘p sanoat mollari bo‘lgan savdosi bor.

¹³ Šemseddin Sami. Kāmūsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1898. VI C. – B. 2023.

¹⁴ Šemseddin Sami. Kāmūsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1896. V C. – B. 3394.

¹⁵ Šemseddin Sami. Kāmūsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1896. V C. – B. 3395.

¹⁶ Šemseddin Sami. Kāmūsu'l-alam. Istanbul: Mihran, 1896. V C. – B. 3264.

Viloyatning yana bir shahri hisoblangan Namangan shahrining 16000 aholisi, chorsuni o‘rab olgan 1000 ta do‘koni, paxta tola fabrikalari, yilliga 300000 dan oshiq qo‘ylar sotilgan gavjum hayvon bozori mavjud. Butun u taraf aholilarining tijorat markazi bo‘lib, mahalliy va sanoat mahsulotlarini daryoda kemalarga ortadilar. Ruslar tarafidan bosib olish asnosida, tub aholisi xonavayron bo‘lib, bir islom mahallasi binosi, zamonaviy bir rus mahallasi tashkil bo‘lmoqda.

Namangan tumanining Koson shahrida esa 10.000 aholi istiqomat qiladi. Shaharda muhtasham masjidi, juda gavjum bozori, atrofida bir qal’asi, serhosil va go‘zal yerlari, Sad pir nomli mashhur ulamolarning xaroba mozori bor. Juda eski bir shahar bo‘lib, juda ko‘p mashhur ulamolarning vatani hisoblanadi. Yoqut Hamaviy o‘z zamonida turkiylar g‘alabasi bilan vayron bo‘lganini aytganini hisobga olsak, undan so‘ng qayta tiklangani tushuniladi. Uning hozirgi aholisi Eronning shimoliy tomondan kelib chiqqan tojik jinsiga mansub va ular fors tilini yaxshi bilishadi.

Samarqand viloyatining aholisi 290.000 kishi bo‘lib, asosiy aholisi fors tilida muloqot qiladi. Viloyatning Samarqand shahar aholisi 40.000 kishi bo‘lib, bularning 6.000 tasi rusdir. Shaharning o‘rtasida Registon nomi bilan joylashgan bir maydon bo‘lib, Buning atrofida Tillakori, Sherdor, Ulug‘bek nomlari bilan uchta katta madrasa va bir nechta katta jome’ bor. Bu uch madrasining biri nomi bilan anglashilgan mashhur Ulug‘bek astronomiya, yulduzlar va hay’at ilmi va ta’lim bilan mashg‘ul madrasadir. Shaharning shimol tarafida Toshkent yaqinida bir maydon bo‘lib, buning bir tarafida Temurning ayoli Xitoy hukmdorining qizi Bibixonimning bo‘lgan katta madrasasi bor, u hozirgi paytda xarob bo‘lib, paxta bozori bo‘lgandir. Buning bir tarafida shu ayolning maqbarasi turgan¹⁷.

Zarafshon daryosidan olib kelingan uchta katta va bir qancha kichik kanallar shaharni aziyatlab, suvi juda ko‘pdir. Rus mahallasi qal’aning g‘arbida temiryo‘l vokzalining atrofida bo‘lib, keng ko‘chalari, go‘zal bog‘chalari, maydonlari, bitta cherkovi, bir nechta maktabi, do‘konlari, umumiy bog‘chasi bordir. Samarqand aholisining katta qismi tojik va kamchiligi o‘zbek, arab, eroniy, afg‘onlar, hindlar va ruslardir. Mahalliy tili forsiy bo‘lib, turkcha ham gaplahadilar. Aholi juda mehnatkash, hunarmandchilik va tijoratga moil bo‘lib, keragicha Rossiya bilan va yetarlicha Buxoro, Xiva, Kobul, Qoshg‘ar va boshqa taraflar bilan bo‘lgan tijoratning katta qismi bularning qo‘lidadir. Shoyi, joynamoz, ipak gazlamalari va boshqa boshqa matolar, qurollar, chinni idishlarning ba’zi ishlab chiqirishlari bordir. Ko‘nchilik ustaxonalari ham ko‘pdir. Uy hayvonlari yog‘idan sovunning bir turi ishlab chiqariladi¹⁸.

XULOSA. Yuqoridagi ma’lumotlarning aniqligi, shu bilan birga Markaziy Osiyodagi tarixchilar, g‘arblik sharqshunoslar hamda arxiv ma’lumotlariga ham muvofiq bo‘lishi “Qomus al-a’lom” Markaziy Osiyoning XIX asrdagi muhim ma’lumotlarni o‘z qamrovini olganligini ko‘rsatadi.

Ensiklopediya XIX asr-XX asr boshlarida yozilishiga qaramay, Markaziy Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmi tarixi haqida ham atroflicha ma’lumot bergan.

¹⁷ Şemseddin Sami. Kâmu’su’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2626.

¹⁸ Şemseddin Sami. Kâmu’su’l-alam. Istanbul: Mihran, 1894. IV C. – B. 2627.

E’tiborli tarafi shundaki ma’lumotlarning qaytarilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Maqolalar birlashtirilsa umumiy bir tavsif taqdim etilgan. Shu bilan birga, ma’lumot qaytarilishi lozim bo‘lgan qismga avvalgi taqdim qilingan maqolaning nomi ilova sifatida yozib o‘tilgan.

XIX asrda Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan ma’muriy birliklar ham alohida ta’kidlanib, bu haqida dastlabki umumiy ma’lumotlar ko‘rsatilgan.

Buxoroda tavnallud topib, Istanbulda vafot etgan olim Abdulkarim Buxoriy haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Bu olim haqida esa, Markaziy Osiyo tarixida juda kam tilga olingan. Vaholanki, olimning asari fransuz tiliga tarjima qilinib, Fransiyada nashr qilingan. Bu esa, Markaziy Osiyoning XIX asr tarixini yanada kengroq o‘rganishga turtki beradi.

Ensiklopediyaning yutuqli tarafi bilan birga kamchiliklari ham bo‘lib, Buxoro amirligi haqidagi ma’lumotlar Buxoro xonligi nomi ostida taqdim etilgan. Buxoro amirligi deb nomlangan maqolada esa, faqatgina amir hukmronlik qilish haqida ma’lumot uchraydi.

Yana bir shunday kamchiliklaridan biri esa, Amir Nasrullaxonni ham Buxoro xoni sifatida ko‘rsatadi.

Ba’zi ilmiy maqolalari juda qisqa bo‘lib, Amir Nasrulloxonning faqatgina Buxoro hukmdori hamda vafoti haqidagi ma’lumotlar bilan cheklanadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda joylashgan ko‘plab shahar, daryo, ko‘l, qal’a hamda mahallalarning XIX asrda qaysi davlat tarkibi yoki mashhur bo‘lgan hududga nisbatan nisbat berib o‘tadi.

Umumiy xulosa shuki, Markaziy Osiyoning XIX asrdagi tarixi haqida ensiklopediya qamrovi doirasida yetarlicha ma’lumot bera oladi hamda ana shu davrda Usmonli imperiyasida Markaziy Osiyo haqida qay darajada ma’lumotga ega ekanliklari haqida muhim manba bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Şemseddin Sami. Kâmûsu’l-alam. Istanbul: Mihran, 1889-98. VI C.
2. Boymirza Hayit. Turkiston Rossiya va Xitoy oralig‘ida. Toshkent:Yangi asr avlodi, 2023. 528 b
3. Xudoyorxonzoada. Anjum at-tavorix. Toshkent: Fan va texnologiya. 2014, 348 b
4. Jannat Ismoilova. XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar” qismi tarixi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2004. 140 b
5. Omonbek Jalilov. XIX-XX asr boshlaridagi qoraqalpoq tarixidan. Toshkent: Fan, 1986. 140 b
6. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy. Tarixi jahonnamoyi. Toshkent: ToshDTU bosmaxonasi, 2012. 439 b
7. Ibrohim Alimov. Qo‘qon xonligi madrasa va maktablari tarixi. Toshkent: Fan, 2017. 304 b
8. Mirzoolim Mushraf. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashri, 1995. 128 b
9. Munis va Ogohiy. Firdavs ul-iqbol. Toshkent:Yangi asr avlodi, 2010. 520 b